

ELEKTRON KUTUBXONA MOBIL ILOVASI

Bekimmetova Durдона Ikromjon qizi, TATU Urganch filiali talabasi

E-mail: bekimmetovadurdona1@gmail.com

Frunzayeva Dilfuza Axmad qizi, TATU Urganch filiali talabasi

E-mail: dilfuzafrunzayeva@gmail.com

Ollaberganova Muyassarxon Davlatboy qizi, TATU Urganch filiali talabasi

E-mail: Ollaberganovamuyassar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kutubxona tizimini mobil ilova yordamida takomillashtirilgan hamda, kitobxonlikni targ'ib qiluvchi ilova haqida so'z yuritiladi. Hozirgi kunda mobil ilovalar ko'plab sohalar ishini yengillashtirmoqda. Kutubxonalar ishini kengaytirish hamda kitobxonlar sonini oshirishda bu ilova juda katta samara ko'rsatadi.

Аннотация. В данной статье рассказывается об усовершенствованной библиотечной системе с использованием мобильного приложения и приложения, способствующего чтению. В настоящее время мобильные приложения облегчают работу многих отраслей. Это приложение очень эффективно для расширения работы библиотек и увеличения числа читателей.

Abstract. This article talks about an improved library system using a mobile application and an application that promotes reading. Nowadays, mobile applications are facilitating the work of many industries. This application is very effective in expanding the work of libraries and increasing the number of readers.

Kalit so'zlar. ilova, kutubxona, kitoblar, kitobxon, jahon adabiyoti, she'riyat, android dasturlash.

Ключевые слова. приложение, библиотека, книги, читатель, мировая литература, поэзия, андроидное программирование.

Keywords. application, library, books, reader, world literature, poetry, android programming.

Hozirgi kunda jahon mobil telefonlar bozorining 75% ini Android operatsion tizimi xizmatlaridan foydalanib kelinmoqda. Android Linux yadrosida yaratilgan portativ (tizimli) operatsion tizim bo'lib, Kommunikatorlar, planshetli kompyuterlar, elektron kitoblar, raqamli pleyerlar, qo'l soatlari, netbuklar va smartbuklarda ishlatiladi. Google tomonidan sotib olingan Android Inc. kompaniyasi tomonidan yaratilgan. Keyinchalik Google tizim rivojlanishi bilan shug'ullanadigan Open Handset Alliance (OHA) ittifoqini tuzdi. Android yordamida Java dasturlarni tuzish mumkin. Android Native Development Kit Sida va boshqa tillarda yoziladigan dasturlarni yaratadi.

Smartfonlar va planshetlardan tashqari Android OT boshqa moslamalarga ham oʻrnatiladi. Hozirda smartfonlar va planshetlar bozorida iOS va Android asosidagi qurilmalar yetakchilik qilyapti. Yana Windows Phone bor, hozirgi vaziyatda turli usullarda bozordan oz boʻlsada oʻrin egallashga harakat qilayotgan, Apple va Microsoftdan farqli ravishda, toʻliq ekotizimga ega boʻlgan, Google, hozircha, faqat smartfon va planshetlar uchun operatsion tizim mavjud xolos. Chrome OS hisob emas — u faqat veb dasturlar uchun va veb applar hali-veri nativ appllarning oʻrnini bosolmaydi. Apple turli qurilmalarni oʻzi chiqarsa ham unda foydalanuvchi uchun lozim boʻlgan barcha qurilmalar uchun taklif bor: desktop kompyuteri sifatida Mac-mini, iMac, Mac-pro; noutbuklar — Macbook, Macbook-air, Macbook-pro; iPhone, ipod-touch, ipad va hokazo. Microsoft ham Windowsning soʻnggi versiyalaridan soʻng planshet uchun ham operatsion tizimga ega. Ikki kompaniyada ham toʻliq ekotizim. Ushbu kompaniya qurilmalaridan dunyoning deyarli barcha davlatlarida foydalanish mumkin (va ular Chrome Book kabi internet talab qilmaydi).

Hozirgi kunda android ilovalar joylashga doʻkon yaʼni Play Market koʻplab ilovalarga toʻlib toshgan. 2018 yil statistikasiga koʻra Play Marketda 2 900 000 dan ortiq ilovalar joylashtirilgan. Bu statistika kunsayin ortib bormoqda. Android ilovalar turkumiga ikkiga boʻlish mumkin: oʻyinlar va ilovalar.

Androidda elektron kutubxona foydalangan holda foydalanuvchi interfeysi hamda ekran elementlarini loyihalash mumkin. Bunda ham HTML Web-sahifa yaratish usullari qoʻllaniladi. Har bir kitob fayli View yoki ViewGroup obyekt boʻlgan 1 ta asosiy element saqlaydi. Asosiy element aniqlangach, unga qoʻshimcha elementlar yoki vidjetlar qoʻshish mumkin. Bu elementlarni esa oʻz navbatida doimiy ravishda tahrirlash mumkin. Misol: Ushbu misolda 1 ta asosiy element, yaʼni va oʻz atributlariga ega boʻlgan 1 ta ost element hisoblangan, yaʼni matnli maydon mavjud. Android muhitida umumiy atributlarni elektron kutubxonada eʼlon qilish. Har bir fayldagi asosiy element oʻzida quyidagi qiymatli atributni saqlashi lozim: android: layout_width Ushbu atribut ekran uchun ruxsat etilgan kengligini ifodalaydi. Yuqoridagi misolda TextView yagona obyekt boʻlganligi uchun ham uni butun ekran boʻylab choʻzish mumkin. Shuning uchun ham uning qiymati "fill_parent" ni tashkil etadi. android: layout_height mos ravishda ekran uzunligini belgilaydi. android: text TextView da ifodalanishi lozim boʻlgan matnni oʻrnatadi.

View va ViewGroup ning har bir obyekt xilma-xil XML-atributlarni qoʻllabquvvatlaydi. Standart belgilar Ilova yaratishda quyidagi standart belgilardan foydalaniladi:

- FrameLayout;
- LinearLayout;
- TableLayout;
- RelativeLayout;

Android Studio dasturida elektron kutubxona mobile ilovasini yaratish. Shu orqali mobil qurilmalar uchun ilova yaratish ko'nikmalarini hosil qilish.

1. Java tilida ishlaydigan muhitida ko'nikmalar hosil qilish
2. Android Studio dasturi bilan ishlash va o'rganish;
3. Elektron kutubxonada foydalanib grafikani shakillantirish
4. Android ilovada ishlatish
5. Ilovani taqdim etish

Ilova algoritmini yaratish

- Ilovani nomlash;
- Kerakli namunani tanlash;
- Contentga Webview komponentasini joylashtirish;
- Main.java faylga Webview obyektini ulash;
- Activity_main_drawer.xml faylga mavzular tugmalarini kiritish;
- Main.java faylga mavzular tugmalari bosilganda bajarish kerak bo'lgan jarayonni kiritish;
- Ilova rangi va shrift o'lchamlari bilan ishlash;
- Ilova logotipi o'rnatish;
- Ilovani ishga tushirish;

Android studio dasturi o'rnatilib sozlangandan so'ng uni ishga tushiramiz. Shablonlar ichidan keraklisi tanlanadi. Bu faylga ilovadagi xml fayllar nimaa bajarishi, tugmalar bosilgandan qanday jarayon amalga oshishiga doir kodlar yoziladi.

Activity_main.xml fayli. Bu fayl ilovani ishga tushurulganda birinchi bo'lib ishga tushadigan fayl hisoblanib unga boshqa XML fayllar ulangan boladi.

Bu chap tomondan chiquvchi funksional oynaning tepa qismi. Bu yergan ilova nomi, rasmi yozib qoyish mumkin.

Activity_main_drawer.xml. funksional oynaga joylashgan tugmalar. Tugmalarni bosish orqali darsliklarni ko'rish mumkin. Endi lova logotipi va ilova nomini sozlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, elektron kutubxona mobil ilovasini yaratishda Java dasturlash tili, Android Studio dasturi va XML kodlardan foydalanildi. Bu ilovani tayyorlash jarayonida adabiyot sohasi haqida ko'p ma'lumotlar oldim. Mobil ilovalar bizning kundalik hayot tarzimizni osonlashtirishga o'zining katta hissasini qo'shadi. Hozirgi axborotlashgan davrda hayotimizni texnika mo'jizalarisiz tassavvur qilish imkonsizdek tuyuladi. Bu mobil ilova ko'pchilik kitobxonlarga yordam beradi. Ilova yaratilish davomida: men android va java dasturlash tillari haqida bilimlarimni chuqurlashtirdim. Juda ko'plab ma'lumotlar oldim.. Hozirgi rivojlanayotgan zamonda

internet, mobil telefonlar qariyib 90% odam ma'lumotga ega. Shu sababli bu kabi texnologiyalar barchaga foyda keltiradi deb o'ylayman. Hozirgi kunda hamma sohaga dasturlash kirib bormoqda. Shu sababli bu sohani o'rganish hozirgi kunda muhim masalalardan biridir. Mening Elektron kutubxonamda mobile ilovam kitobxonlarning ishini osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.F.Di Marzio Android A Programmer's Guide 2008.
2. Jeff Friesen Learn Java for Android Development;
3. Ma'lumotlar bazalari. B.A. Begalov, E.E.Inog'omjonov, Sh. Nasreddinova. Toshkent – 2006.
4. Jeff Friesen Learn Java for Android Development;
5. Rodjers R., Lombardo D. Android. Razrabotka priloeniy. — M.: [EKOM Pablishez](#), 2010.
6. Donn Felker. Android: razrabotka priloeniy dlya chaynikov = Android Application Development For Dummies. — M.: [Dialektika](#), 2011.
7. Ma'lumotlar bazalari. B.A. Begalov, E.E.Inog'omjonov, Sh. Nasreddinova. Toshkent – 2006.
8. Chris Haseman Android Essentials 2008. 3. Mark Murphy Beginning Android2